



## Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

### Sharqshunoslik. Востоковедение. Oriental Studies

SHARQSHUNOSLIK  
ВОСТОКОВЕДЕНИЕ  
ORIENTAL STUDIES

Jurnal websayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/os>

## QOSIMJON SODIQOVNING “DEVONU LUG‘OTI-T-TURK” ASARINI NASHRGA TAYYORLASHDAGI YONDASHUVLARI

*Zilola Sattorova*

*Tayanch doktorant,*

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*

*Toshkent, O‘zbekiston*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so‘zlar:** matn, faksimile, bosh so‘z, ligatura, masdar, tayanch nusxa, yondashuv, transliteratsiya, transkripsiya.

**Annotatsiya:** “Devonu lug‘oti-t-turk” asari turkologiyada muhim manba bo‘lib, bugungi kungacha 20 ga yaqin o‘zbek va xorijiy tillarga o‘girilib, nashr qilingan. Xususan, ilk marta o‘tgan asrning 60-yillarida Solih Mutallibov tomonidan o‘zbek tilida nashr qilingan edi. 2017-yilda ushbu nashrning qayta ishlangan, to‘ldirilgan, isloh qilingan yangi nashri e‘lon qilindi. Muallifi o‘zbek turkshunosligining yetuk olimi, professor Qosimjon Sodiqovdir. Maqolada tadqiqotchining asarni nashrga tayyorlashdagi yondashuvlari tadqiq etilgan.

## KASIMJON SADIKOV'S APPROACHES TO THE PUBLICATION OF "DEVONU LUG‘OTI-T-TURK"

*Zilola Sattorova*

*PhD student,*

*Tashkent State University of Oriental Studies*

*Tashkent, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** text, facsimile, preface, ligature, infinitive, base copy, approach, transliteration, transcription.

**Abstract:** The book “Dīwān Lughāt al-Turk” is an important source in Turkology. To this date, this book has been translated and published into Uzbek and several other foreign languages about 20 times. In particular, it was published for the first time in the Uzbek language by Solih Mutallibov in the 60s of the last century. In 2017, a revised, supplemented, and reformed new edition of this book was published. The author of this translation is a well-known scholar of Uzbek Turkic studies, Professor Kasimjon Sodikov. The article examines the approaches of Professor Kasimjon

Sodikov in preparing the work for publication.

---

## ПОДХОДЫ КАСИМЖОНА САДИКОВА К ПУБЛИКАЦИИ «ДЕВОНУ ЛУГЪОТИ-Т-ТУРК»

*Зилола Сатторова*

*Докторант,*

*Ташкентский государственный университет востоковедения*

*Ташкент, Узбекистан*

---

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** текст, факсимиле, предисловие, лигатура, инфинитив, базовая копия, прием, транслитерация, транскрипция.

**Аннотация:** Книга «Диван Лугат ат-Турк» является важным источником по тюркологии. На сегодняшний день эта книга была переведена и издана на узбекском языке, а также на других иностранных языках около 20 раз. В частности, она была впервые опубликована на узбекском языке Солихом Муталибовым в 60-х годах прошлого века. В 2017 году вышло исправленное, дополненное и переработанное новое издание этой книги. Автор этого перевода – известный узбекист-тюрколог, профессор Касымжон Содиков. В статье рассматриваются подходы профессора Касымжона Содикова при подготовке работы к публикации.

---

### KIRISH

2017-yil “Devonu lug‘oti-t-turk” (keyingi o‘rinlarda DLT) ning o‘zbek tilida Solih Mutallibov tarjimasida asosida qayta ishlangan, to‘ldirilgan, o‘zgarishlar kiritilgan mukammal nashri<sup>1</sup> chop qilindi. Nashr dunyo e’tirof etgan turkologiyaning yetuk olimi, filologiya fanlari doktori, professor Qosimjon Sodiqovning ko‘p yillik samarali izlanishlari natijasida yuzaga keldi.

Filologiya fanlari doktori R.Alimuhamedovning qayd etishicha: “Domla Qosimjon Sodiqovning ayni kitob ustida o‘n bir yildan buyon ter to‘kib mehnat qilayotganliklarining shaxsan guvohiman. Ushbu nashrni ko‘rgan mutaxassis u mazkur asarning boshqa nashrlardan tubdan farq qilishini bir ko‘rishdayoq ilg‘aydi<sup>2</sup>”. Professor B.To‘xliyev domla ham mazkur nashrni yuqori baholab, burungi nashrda o‘tgan xatolar to‘g‘rilangani, Q.Sodiqov matn talqinida fors yoki arabiy emas, asosan turkiy so‘zlar bilan yondashganini e’tirof etadi.<sup>3</sup>

Qisqa muddat ichida nashr jahon turkologiyasida ham tan olinib, yuksak e’tirof qozondi. Jumladan, Michigan universiteti professori Timur Ko‘chao‘g‘lu nashrga shunday baho beradi:“

---

<sup>1</sup>Mahmud Koshg‘ariy. “Devonu lug‘oti-t-turk”–T.: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU. Nashrga tayyorlovchi Sodiqov Q. 2007. – B.2.

<sup>2</sup>Alimuhamedov.R. Prof. Q.Sodiqov tomonidan tayyorlangan “Devonu lug‘oti-t-turk” asarining yangi nashri // “Devonu lug‘oti-t-turk”–turkiy xalqlarning noyob yozma yodgorligi” mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman materiallari. – T. 2018. – B. 122.

<sup>3</sup>To‘xliyev B.“Devonu lug‘otit-turk”ka oid ayrim mulohazalar// Turkologiya. 2021. №3. – B.31

O‘zbekistonda tilshunos olim Qosimjon Sodiqov nashr qilgan “Devonu lug‘oti-t-turk” dunyodagi eng mukammal ilmiy nashr hisoblanadi”<sup>4</sup>.

Q.Sodiqov qadimiy yozuvlar, jumladan, uyg‘ur, ko‘kturk yozuvlari mutaxassisi, turkiy tillar tarixi, adabiyoti, manbashunoslik va matnshunoslikka oid yuzlab ilmiy maqolalar va 30 ga yaqin monografiyalar, o‘quv qo‘llanmalari muallifidir<sup>5</sup>.

Q.Sodiqov turkiy tilda bitilgan qadimiy asl manbalar asosida “Ko‘kturk bitig‘lari”, “Hibatu-l-haqoyiq” asarlari matnini<sup>6</sup>, “Qutadg‘u bilig” so‘zligini nashrga tayyorladi.<sup>7</sup> “Devonu lug‘ati-t-turk” tadqiqiga oid 20 dan ortiq ilmiy ishlari e‘lon qilingan.<sup>8</sup>

Nashr mas‘ul muharriri akademik Ne‘matulloh Ibrohimov, shuningdek, tahrir kengashiga akademik Alibek Rustamov, O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidovlar boshchilik qilishdi. Akademik Aziz Qayumov hamda filologiya fanlari doktori Salimaxon Rustamiylarning ijobiy taqirizi olindi. Bir so‘z bilan aytganda, o‘zbek turkologiyasi darg‘alari imtihonidan o‘tdi<sup>9</sup>.

Asar 2017-yilda G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida 2000 nusxada bosilgan. Bir jild, asosiy matn kirill alifbosida, umumiy 482 sahifadan iborat. Uchala jild bir kitobda jamlangani uchun ham kitob hajmi nisbatan kengroq. Ko‘k rang bilan uyg‘unlashgan muqovasi mustahkam. Sahifalar va sahifa raqamlari chegarasida naqshin hoshiya bor. Matnda asosiy so‘zlar va turkiy o‘rnaklar qalin rangga olinib, ajratib ko‘rsatilgani sabab, so‘zlarni topish o‘quvchiga murakkablik tug‘dirmaydi. Har bir jumla dona-dona, tiniq. Xullas, texnik sifati yuqori.

Bizning hisobimizga ko‘ra, joriy nashrda 7596 ta bosh so‘z vazifasida kelgan leksik birliklar izohlangan. Badiiy namunalarning umumiy hajmi, hisobimizcha, 243 ta (856 misra).

<sup>4</sup> Timur Kochaoğlu. Zamonaviy tilshunoslik nuqtayi nazaridan Devonu lug‘otit-turk // Turkologiya. 2021. №3. – B.16.

<sup>5</sup> Qarang: Boltabayev S. ÖZBEK TÜRKÖLOG KASIMCAN SADIKOV‘UN ÇALIŞMALARI ÜZERİNE BİR BİBLİYOGRAFYA DENEMESİ. Atatürk Üniversitesi Edebiyat Fakültesi Sosyal Bilimler Dergisi. Journal of Social Sciences Sayı/Number 51, Aralık/December. 2013, 35 – 62.

<sup>6</sup> Sodiqov Q. Ko‘kturk bitig‘lari: matn va uning tarixiy talqini. – T., 2004. – B.144; Hibat ul-haqoyiq [Matn]: asar / Adib Ahmad Yugnakiy. – T: “Akademnashr”, 2019. – 168 b.

<sup>7</sup> Sodiqov Q. “Qutadg‘u bilig” so‘zligi [Matn]: ilmiy-ommabop nashr. – T., 2020. – 304 b.

<sup>8</sup> Sodiqov Q. Mahmud Koshg‘ariy uyg‘ur yozuvi haqida. // Adabiy meros, 3(37). Toshkent, 1986. 41–45-b; Mahmud Koshg‘ariy turkiy dialektlar haqida. // Adabiy meros, 4(50). Toshkent, 1989. 60–65-b; Turk-uyg‘ur yozuvi. // “Yoshlik” jurnali, 1989, №7. 56–58-b.; Uyg‘ur yozuvi va uning tovush sistemasiga munosabati. – Hozirgi o‘zbek adabiy tilining taraqqiyot yo‘nalishlari. Toshkent, 1990. 65–67-b.; Mahmud Koshg‘ariyning xaritasi haqida. Sharq filologiyasining tugun va yechimlari. Toshkent, 2005. 4–14-b.; Turkiy klassik matnlarni transkripsiya va transliteratsiyaga o‘girish masalasi. // Sharqshunoslik. № 14 / 2009. 11–15-b; “Devonu lug‘oti-t-turk”da kechgan *yelkin~elkin* so‘zi va uning she‘riy uzintilardagi semantikasi // “Devonu lug‘oti-t-turk” – turkiy xalqlarning noyob yozma yodgorligi” mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman materiallari. – T., 2018. B.49 – 54.; Mahmud Koshg‘ariy keltirgan uyg‘ur alifbosi: harf va tovush munosabatlari // Turkologiya. 2021 №3. – B.4 – 14.

<sup>9</sup> Domla bilan tanishganimga ko‘p bo‘lmagan esa –da, ularning asl manba bilan ishlashdagi mahoratlari, chuqur bilim va ko‘nikmaga egaliklari, shogirdlaridan ilm yo‘lida qimmatli maslahatlarini, vaqtlarini ayamaydigan kamtar, haqiqiy ilm fidoyisi ekanliklari guvohi bo‘lganman. Bir suhbatimiz chog‘ida “Devonu lug‘oti-t-turk”ni nashrga tayyorlash sababini biz bilan bo‘lishdilar: “Bu ishni menga topshirgan Ne‘matulloh Ibrohimov bo‘ladilar. Bir kun chaqirdilar-da, devonni qayta nashrga tayyorlasang, mana Alibek aka borlar, maslahatlashib turasan dedilar. Bu yerda o‘tirganlar orasida Erkin Vohidov ham bor edi. Ular ham yozavering dedilar. Erkin akani, bilasiz-ku, o‘zbek tili tarixiga hurmati baland edi. Ular ham, bu asar ustida ishlash kerak deb, qayta-qayta ta‘kidladilar. Men qo‘lyozma bilan solishtirib ishlayman, bunga ancha vaqt ketadi desam ham, ular mayli deb ishonch bildirdilar. O‘shanda devon ustida ishlashni boshlaganman. Bunga endi ancha vaqtlar o‘tib ketdi, oradan ko‘p vaqtlar o‘tdi, lekin men ishlayverdim. Yoz oylari ayniqsa, dam olmasdan subhi sodiqdan avval turib olardim va kun bo‘yi ishlardim. N. Ibrohimov toki ish nashriyotga topshirilib, bosib chiqilgunga qadar jarayon bilan tanishib turdilar. Erkin Vohidov ham telefon qilib bo‘lsa-da, so‘rab turdilar (Suhbat 2022-yil, 23-may sanasida TDSHU, Mumtoz filologiya va adabiy manbashunoslik kafedrasida yozib olingan).

Shundan 185 ta to'rtlik va 58 tasi ikkilik baytlardir. Maqollar esa I.Mirzaaliyev qaydicha,<sup>10</sup> 298 ta. Shundan 42 ta maqol takror kelgan. Sahifa ostida jami 91 ta izoh berilgan. Izohlarda adabiyotlarga havolalar, ayrim sarlavhalar mazmuni, matnda kelgan mavhum holatlar, ligatura bilan yakunlangan masdarlar olingan.

Nashr keng ilmiy ommaga – filologlar, tarixchilar, manbashunoslar va shunga yondosh soha egalari, talabalarga hamda keng kitobxonlarga mo'ljallangani titulda qayd qilingan. Shuningdek, “asar 1963-yildan buyon ilk bor nashr qilinmoqda” deb qo'shimcha qilinishiga ko'ra (2-bet), domla 2016-yildagi qayta nashrdan xabardor bo'lmaganliklarini tushunish mumkin.

3–10-sahifalarda So'zboshi sifatida muallifning Mahmud Koshg'ariy va uning “Devonu lug'oti-t-turk” asari maqolasi kiritilgan. Shuningdek, Devonni nashrga tayyorlash prinsiplari (10–11-betlar), Matnda qo'llangan transkripsiya (12-bet) izohlari ham qo'shilgan. 13-sahifadan asosiy matnga o'tilgan: Qo'lyozma ta'lifi transliteratsiyasi va tarjimasi ([“TURK SO'ZLARI DEVONI”] KITOBI Tuzuvchi: Mahmud bin al-Husayn bin Muhammad al-Koshg'ariy (Alloh u kishini O'z rahmatiga olsin)] keltirilgan sarlavha ostida so'zboshi yozilgan (13-bet). 14–27-sahifalarda DLT ning “Muqaddima” qismi berilgan. Shundan so'ng asarning lug'at qismiga o'tiladi. Yakunda, 479-betda “Nashrda uchraydigan arabcha tilshunoslik atamalari”da Mahmud Koshg'ariy qo'llagan 16 ta atama izohlanib, misollar bilan dalillangan. So'nggi sahifada rus va ingliz tillarida qisqa “Rezyume / Summary” xulosa qilingan. Matnni qayta nashrga tayyorlash sabablari, dolzarbligi va prinsipiga qisqa to'xtalgan. 192 – 195-betlar orasida qo'lyozmaning uyg'ur harflari keltirilgan 6-sahifasi, Mahmud Koshg'ariyning yer yuzi xaritasi va 474-beti faksimile nashrdan aynan sifati o'zgarmagan holda nusxalanib, yangi varaq bilan birlashtirilgan. Ushbu nashrni tayyorlashda domla DL Tning 1990 va 2008-yillarda Turkiyada chop qilingan faksimile nashridan foydalangan.

Kirish qismida Q.Sodiqovning “Devonu lug'oti-t-turk” qo'lyozmasining matniy xususiyatlari, Koshg'ariy qo'llagan lingvistik atamalar, so'zlarning morfologiyasi va fonetikasi atroflicha sharhlangan. Domlaning turkiy tillar tarixiy grammatikasi, yozuvi, qadimiy qo'lyozma manbalar tili bo'yicha keng bilim va tajribaga egaliklari matn ustida chuqur tahlil olib borishida, qolaversa, o'rganilayotgan davrga oid boshqa manbalar bilan qiyoslab, masalaning tub ildizini ochib berishida ko'rinadi. Jumladan, “lug'at” so'zini Koshg'ariy ikki asarida ikki xil ma'noda ishlatganini shunday tahlil qiladilar: “Asar arabchada “*Dīvānu luġāti-tūrki*” deb atalgan. Ushbu atamada *dīvān* – “devon”; bu o'rinda “so'zlarning muayyan izchillikdagi to'plami” tushuniladi; *luġāt* – “so'zlar” degani; uning izohlovchisi bo'lmish *tūrki* – “turk” ma'nosida bo'lib, o'sha zamondagi turkiy tilni bildiradi. Mahmud Koshg'ariy asarning kirish qismida bugungi kunimizgacha saqlanmagan boshqa bir asari “*Javāhiru-naḥvi fi luġāti-t-tūrki*” to'g'risida so'z yuritadi (9b). Bu o'rinda muallif *luġāt* so'zini “tillar” ma'nosida qo'llagan. Shunga ko'ra, o'sha noma'lum kitob nomining tarjimasi: “Turk tillarining nahriga oid gavharlar” bo'ladi (QS.3)<sup>11</sup>.

Qo'lyozma matniga xos xususiyatlarni yoritishda domla boshqa turkologlarning tahliliga tayanmaydi. O'z kuzatuvlari asosida matnni sinchiklab o'rganib tavsif qilib, ilmiy xulosalarini o'rta tashlaydi. Qo'lyozma hajmi, yozuv xususiyatlari, turkiy o'rnlarni ifodalashda Koshg'ariy tutgan yo'l, qaysi o'rinda qanday siyohdan foydalanilganligi, matnda sochilib yotgan

<sup>10</sup>Mirzaaliyev. I. Qadimgi turkiy maqollar semantikasi va stilistikasi. (“Devonu lug'oti-t-turk” materiali misolida). Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: 2020. – B. 14.

<sup>11</sup> Mahmud Koshg'ariy. “Devonu lug'oti-t-turk”. Nashrga tayyorlovchi Qosimjon Sodiqov. G'afur G'ulom nomidagi NMIU. – T.2017. – B.482.

turkiy oʻrnaklarning ajratilib berilishi, toʻgʻri oʻqilishini taʼminlash uchun harakatlarning izchil qoʻyilib borilgani haqidagi kuzatuv natijalarini asoslaydi.

Mazkur qismda domla asosan quyidagi masalalar ustida mulohaza yuritadi:

1. XI asr yozma adabiy tili.
2. “Devonu lugʻoti-t-turk”da Koshgʻariy keltirgan turkiy yozuv va uning xususiyatlari.
3. Turkiy soʻzlarni arab alifbosida ifodalash uchun Koshgʻariy tutgan yoʻl.
4. Matnda bir yoʻla ikki xil harakatlangan soʻzlar masalasi.

“Devonu lugʻoti-t-turk”ning yutuqlaridan biri asarda eski turkiy tillarning lugʻat boyligi etnolingvistik, lingvokulturologik, qiyosiy-tipologik yoʻnalishlarda tadqiq etilganidir. Xususan, domla Mahmud Koshgʻariy oʻz davrining buyuk fonetistlaridan biri, fonetika va fonologiyaning oʻtkir bilimdoni (QS,4) sifatida baholaydi. Koshgʻariy ishlab chiqqan arab metodologiyasi asosidagi amaliyotga olib kirilgan prinsip XX yuzyillik boshiga qadar arab yozuvli matnchilik amaliyoti anʼanasining poydevori boʻlib kelganini taʼkidlaydi.

Mahmud Koshgʻariy aynan turkiy tillarning qay birini oʻz asariga asos qilib olgani toʻgʻrisida turkologiyada turli qarashlar boʻlgan. Masalan, qadimgi turkiy yodgorliklarning ilmiy matnini eʼlon qilgan olim S.Malov Mahmud Koshgʻariy uygʻur tilini asos qilib olganini, matnda eski uygʻurchaga oid parchalar berilganini yozgan<sup>12</sup>. Badiiy parchalarning ayrimlarida uygʻurlar bilan boʻlgan janglar ifodalangani uchun ham olim shunday fikr bergan boʻlishi mumkin. Yoki asarda uygʻur va oʻgʻuz qavmlari nisbatan koʻproq tilga olingani<sup>13</sup> uchundir. S.Mutallibov ham ayni masalada “Qutadgʻu bilig” uchun chigil, yagʻmo, tuxsi kabi dialektlar kombinatsiyasi asos boʻlganini taxmin qiladi. Qosimjon Sodiqov matnga asoslanib, Koshgʻariy turkiy tillarni ikki guruhga ajratgani, biri barcha turkiy qavmlar uchun tushunarli boʻlgan, rasmiy ishlarda va yozma adabiyotda qoʻllanuvchi, oʻtmish yozma til anʼanalarini saqlab kelayotgan – yozma adabiy til (“turkcha”, “xoqoniya tili”), ikkinchisi turli turkiy shevalar boʻlib, dialektal leksika ana shu lugʻat qatlami tevaragida unga chogʻishtirib borilishini xulosa qilgan. (QS,4).

Mahmud Koshgʻariy turkiy yozma adabiy tilni boshqa dilektlardan ustun qoʻyadi va devonni varaqlagan sari bunga yanada amin boʻlish mumkin: “Turklar hurmatli kishilarga nisbatan, garchi u kishi yolgʻiz boʻlsa ham *bardijiz* deyishini, *-ijiz* aslida koʻplikni bildirib, oʻgʻuzlar koʻplikda faqat shu qoʻshimchani qoʻllashini aytadi. Xususan oʻgʻuzlarning talaffuzi qoidaga muvofiq boʻlsa ham, turklarnikida fashohat, katta-kichikni farq qilish kabi goʻzallik borligini uqtirgan (QS.222).” Bu oʻrinda Koshgʻariy shaxs-son qoʻshimchasini qiyoslash bilan birga, uning uslubiy xoslanishini ham koʻrsatib beradi. Devondan uzilgan quyidagi jumla ham domlaning xulosasini toʻldiradi: “Yuqori *Singacha* boʻlgan qabilalar: *chigil, yagʻma, tuxsi* tillarida soʻzlarni koʻproq peshli talaffuz qiladilar. *Oʻgʻuzlar, qipchoq, suvorin* va *Rumga* qadar boʻlgan joylarda yashovchilar *fatha* qilib soʻzlaydilar. Chunonchi, *turklar* tuyani *kasra* bilan *tewäy* deyidilar. Oʻgʻuzlar va yuqorida ularga qoʻshib aytilgan qabilalar *tewä* deyidilar. Turklar *däl* harfini *kasra* qilib *bardim* deyidilar. Bu qoidaga muvofiqdir. Oʻgʻuz va boshqalar *däl*ni *fatha* qilib *bardam* deyidilar. Bu qoidaga ziddir” (QS.370). Mahmud Koshgʻariy turk tilini yuqoridagi qabilalardan ayirib tahlil qilgani hamda ularning qoidaga zid boʻlgan xususiyatlarini koʻrsatib oʻtgani uchun ham lugʻatga asos boʻlgan adabiy yozma til emasligini taxmin qilishimiz mumkin.

<sup>12</sup> С.Е.Малов, Памятники древнетюркской письменности, Издательство Академии Наук СССР, Ленинград 1951. – С. 305.

<sup>13</sup> Korkmaz Zeynep. Kaşgarlı Mahmud kimdir? Türk Dili üzerine araştırmaları. Yay.:629,Ankara. 1995. – S.258.

Biroq devonda xoqoniy turkchasi ham xatodan xoli emasligi qayd qilingan<sup>14</sup> o‘rinlar bor bo‘lib, Koshg‘ariyning xolisona yondashganini ko‘rish mumkin.

Q.Sodiqov uyg‘ur yozuvi va manbalariga oid monografik tadqiqotlarini e‘lon qilgan. “Qutadg‘u bilig” asarining uyg‘ur yozuvli qo‘lyozmasi hamda XI–XV asrlar uyg‘ur yozuvli yodgorliklarining yozuv va fonetik tafovutlariga oid nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli himoya qilganlar<sup>15</sup>. “Eski uyg‘ur yozuvi”, “Uyg‘ur yozuvi tarixi”, “Qutadg‘u bilig”ning uyg‘ur yozuvli Hirot nusxasi”, “Turkiy matnnavislik tarixidan – Qadimgi yozma yodgorliklar” monografiyalari ham aynan uyg‘ur yozuviga oid tadqiqotlar davomidir. Uyg‘ur alifbosidagi ko‘pgina harflar polifonik xususiyatga egaligi<sup>16</sup> matnni o‘qishni qiyinlashtiradi. Shunday hollarda, arab va ko‘kturk bitiglaridagi manbalarga tayanib, so‘zni to‘g‘ri o‘qishni mutaxassisdan talab qiladi.

Uyg‘ur yozuvini Koshg‘ariy turkcha yozuv deb tanishtiradi. Matnning 6 – 8-betlarida uyg‘ur alifbosining 18 ta harfi haqida ma‘lumot bergan. Domlaning ta‘kidlashicha, o‘tmishdan qolgan uyg‘ur alifbolari bisyor, biroq ularning hech biri Koshg‘ariy alifbosi va u keltirgan izohlarga tenglasha olmaydi. Koshg‘ariy uyg‘ur yozuvining transliteratsiyasini, nomlanishini, ketma-ketlik tartibini, qo‘llanilishi doirasini ham qisqa va sodda tushuntirib bera olgan. Harfiy belgiga ega bo‘lmagan qolgan 7 tovushni ham maxsus belgilar bilan shu harflardan yasashini ko‘rsatgan. Qo‘lyozmani ko‘chirgan kotibni askariyat turkologlar turkiy tillarni, yozuvlarni yaxshi bilmasligini, ayrim xatolar uning aybi ekanligini aytishadi<sup>17</sup>. Biroq uyg‘ur xati mutaxassisi sifatida domla Abu Bakr Saviy Damashqiyga yuqori baho berib, uning eski uyg‘ur xatini yaxshi bilganini, misollar o‘ta chiroyli, uyg‘ur xatini har kim ham bunday yoza olmasligini dalillaydi.

Q.Sodiqov yana bir masalaga oydinlik kiritadi. Matnda aralash kelgan harakatlar, hoshiyadagi yozuvlar ham kotibning xatosi, ya‘ni turkiy tilni yaxshi bilmagani uchun ikki xil diakretik belgilar qo‘ygan va ko‘chirishda unutib qoldirgan o‘rinlarni hoshiyaga olgan degan qarashlar ham bor. Domla bu farazlar asossiz ekanini, hoshiyada butun boshli maqolalarni tushirib ketish mumkin emasligini ta‘kidlaydi. Shuningdek, katta ehtimol bilan kotib DLTning boshqa nusxasini ko‘rib, solishtirishi natijasida keyingi o‘zgarishlarni o‘zi amalga oshirganini taxmin qiladi (QS.9).

DLTning boshqa nusxalari mavjudligiga olimlar devon ilmiy muomalaga kirgan kundan beri bahslashadilar Bugungacha Z.V.To‘g‘on, R.Denkoff va J.Kelli, M.Halil, Sh.Akalin, A.Chetin<sup>18</sup> lar devon nusxalari xususida ma‘lum tadqiqot olib bordilar. Natijalarga ko‘ra, ayrim tarixiy asarlarda mualliflar qo‘limizdagi nusxadan iqtibos keltirganlar. Denkoff-Kelli Z.V.To‘g‘on ko‘rgan Badriddin Ayniyning “Tarix ul-Badr” asarida keltirilgan o‘g‘uz tabaqa va tang‘alari aynan bizning nusxa bilan bir xil ekanini aniqlaydi. Chunki, *basmil* va *o‘graq* qabilalari har ikki asarda ham bir xil *yasmil* va *i‘graq* ko‘rinishida ekanligi bilan shu xulosasini

<sup>14</sup> *asadi* – osh yedi ma‘nosidagi so‘z izohida xoqoniylar bu so‘zni faqat kattalarga qo‘llashini yozadi. Boshqa turklar esa hammaga qo‘llashini va bularmiki qoidaga muvofiqligini qayd qilgan. (411 bet).

<sup>15</sup> Содиков Қ. Языковые особенности «Кутадгу билиг» (на материале уйгурописменного списка). Автореферат кандидатской диссертации. Ташкент. 1987; Графико-фонетические особенности тюркских уйгурописьменных памятников XI – XV вв. Автореферат докторской диссертации. Ташкент.1992.

<sup>16</sup> Qarang. Sodiqov Q. Mahmud Koshg‘ariy keltirgan uyg‘ur alifbosi: harf va tovush munosabatlari // Turkologiya.2021№3. – B.8.

<sup>17</sup> Kanonov A. Mahmud Koshg‘ariy va uning “Devonu lug‘otit turk” asari // O‘zbek tili va adabiyoti. 1969.№1. – B. 35.

<sup>18</sup> Bu haqda qarang. Ercilasun, A. B., Akkoyunlu, Z. Kâşgarlı Mahmud. Dîvânü Lugâti‘t-Türk (Giriş - Metin - Çeviri - Notlar - Dizin), Ankara: TDK Yayınları. 2014. – S.12.

tasdiqlaydi<sup>19</sup>. Sh.Akalin ham 2008-yilda ushbu asarda keltirilgan Koshg'ariyning uyg'ur yozuvi va u haqidagi ma'lumotlarning faksimilini e'lon qilgan. Ikki manbada ham bir xil<sup>20</sup>. 2008, 2009-yillarda Altan Chetin mamluk davlati tarixchilarining ayni shu davrda bitilgan asarlari bilan Mahmud Koshg'ariyning o'g'uzlar xususida bergan ma'lumotlarini qiyosiy o'rgangan<sup>21</sup>.

A.Chetin Badriddin Ayniyning boshqa “*Sayfu'l-muhanned fi-sirati'l-Mu'ayyad*” asarida mamluk sultoni Muayyad Shayx tarixi bitilgan qismda Ayniy DLTdan havola keltirganini, o'g'uz tamg'alari nomlanishida farqlar borligini aniqlagan<sup>22</sup>. Ushbu tafovutlar tadqiqotchining Ayniy bu asarida DLTning boshqa nusxasidan foydalangan degan taxminini yuzaga chiqarmoqda. Yuqoridagilar Q.Sodiqovning Abu Bakr Damashqiy DLTning boshqa nusxasini ko'rgan degan taxminini aynan tasdiqlamas-da, biroq, qo'lyozma ustida olib borilgan tahrir manbayi Ayniy havola keltirgan bizga noma'lum nusxa bo'lishi ehtimoli baland.

Mahmud Koshg'ariy tuzgan prinsipga ko'ra turkiy so'zlar arab grammatikasi o'lchovlariga solinib, arab istilohlari bilan so'zning moddiy va ma'naviy tomoniga aniqlik kiritiladi. Koshg'ariy arab grammatikasiga oid atamalar ayrim turkiy so'zlarning tovush, harf va mazmun xususiyatlarini to'liq ifodalay olmaganda yangi istilohlar yasaydi,<sup>23</sup> ayrimlarini o'zgartiradi. DLT ustida ishlangan aksariyat tadqiqotlarda shu atamalar va ularning mohiyati masalasida turli bahslar, tortishuvlar yuzaga kelmoqda. Domla shu ziddiyatga asos bo'lgan ayrimlarini – *ishbā*, *ishmām*, *imāla*, *rakīka*, *şuluba* atamalarining qo'llanish doirasini keltirgan:

ت	<i>Bi'ishbā'i-l-alifi</i> (yo'gon alif bilan)	at – ot, (hayvon)	كوك	<i>Bikāfin rakīkatin</i> (jarangli)	küg-she'r, o'lchovi, vazn (250b)
	<i>Bi'ishmāmi-l-alifi</i> (ingichka alif bilan)	et - go'sht (15a)		<i>Bi-l-kāfi-şulbati</i> (jarangsiz)	Kök – ko'k, osmon (251a)
أخ	<i>Bi'ishbā'i-l-alifi</i> (yo'gon alif bilan)	Uč – mashhur bir shahar nomi (15b)	سيش	<i>Bi-l'imālati</i> (imala bilan)	seš- Kāfolat, to'lov (249a)
		üç-uch (son)		كيش	<i>Bi-l'imālati</i> (imala bilan)
اڤ	<i>Bi'ishmāmi-l-alifi</i> (ingichka alif bilan)	ew- uy (27a)	تو	<i>Bi-l-ishbā'i-</i> (yo'gon alif bilan)	to-undan tayyorlanadigan

<sup>19</sup> Mahmud al-Kashgari, Compendium of the Turkic Dialects (Diwan Lugat at-Turk), edited and translated with introduction and indices by Robert Dankoff, in collaboration with James Kelly. Cambridge, Mass. [In: Sources of Oriental Languages and Literatures, ed. Sinasi Tekin.] Part I 1982. – B.21 – 11.

<sup>20</sup> Akalin. Şükrü. Bin yıl önce ve bin yıl sonra. Kaşgarlı Mahmud ve Divanü luğati türk Yayın: Türk Dili Kurumu ;2008. – S.100.

<sup>21</sup> Çetin A. “Kaşgarlı Mahmud’dan yararlanan bir memlûk tarihçisinin oğuzlar’a dair verdiği bilgiler” II. Uluslararası Türkiyat Araştırmaları Bilgi Şöleni Bildirileri Kaşgarlı Mahmud ve Dönemi, (28 – 30) Mayıs 2008, Ankara), TDK Yayınları, Ankara 2009. – S. 115 – 122. // Bir Memlûk kaynağında yer alan oğuz/turkmen boyları ve damgalarına dair bir değerlendirme. – S. 482 – 488.

<sup>22</sup> A.Chetin tadqiqotining so'nggida Koshg'ariy va Ayniy keltirgan o'g'uz qabilalarini jadvalda aks ettiradi. Shuningdek, Rashididdin va Yazicho'g'lining F.Sumar aniqlagan ma'lumotlarini ham kiritadi. Unga ko'ra Rashididdin va Yazicho'g'li 24 qabilani, Koshg'ariy va Ayniy 22 qabila nomini ko'rsatgan, qiziq va karkin qabilalari Koshg'ariyda va Ayniyda mavjud emas. Manbalarga ikki xil nusxa tayanch bo'lgani 12 ta qabila nomi yozilishida farqlar bilan dalillagan. Tamg'alar esa ikki manbada ham bir xil.

<sup>23</sup> Bu haqda qarang. Rustamiy S. “Devonu lug'oti-t-turk”dagi lingvistik atamalar. TDSHI. 2006. – B.184

	bilan)			unli bilan)	ovqat (268a)	turi
--	--------	--	--	-------------	-----------------	------

Q.Sodiqov *imāla* atamasini (“moyil qilish; og‘dirish”) fathani kasraga moyil qilib, *e* sifatida o‘qish kerakligini ta’kidlaydi (QS.479). Berilgan so‘zlar سَيْش (MK.497/17), كَيْش (MK.498/5) nashrlarda turlicha o‘qilgan: S.Mutallibov – *səish, kijish* (SM.I,138–139); B.Atalay – ..., *kiş* (BA.III,126); R.Askar – *sayış, kiş* (RA.III,134); A.Egeubay – *sejish, kish* (AE.III.159,160); K.Brokkelmann – *kiš* (KB.109), *siš* (182); uyg‘urlar – *səx, kix* (III.174,175), H.Boltaboyev – *sejish, kijish* (HB.III. 84–85). S.Mutallibov imola – “tovushning cho‘zilishi” deb qabul qilgan. Denkoff va Kelli كَيْش so‘zida *imāla* fatha va kasra orasidagi bir tovush bo‘lib, “*ie*” ga yaqin, biroq *ä* ham, *i* ham emas deb izohlagan. Transkripsiyaga *ē* belgisini qabul qilgan (*kēš*).

Mahmud Koshg‘ariy arab alifbosida mazkur tovushning fonetik xususiyatini aniq ko‘rsatishga harakat qilgan. Biroq, tadqiqotchilarning fikricha, سَيْش so‘zidagi holat sal boshqacharoq. Koshg‘ariy ikki so‘zning tovush tizimini bir xil baholagan. Aslida سَيْش ni *sais* yoki *sayiš* deb olish durust. So‘zning “*hisoblamoq, to‘lamoq*” ma’nosidagi fel’ning o‘zagi deb olgan. (DK.I.60). Q.Mahmudov Qadimgi turkiy tillarda [ye] tovushining ingichka [ä] ga variant sifatida [ä~ye] ishlatilganini aytadi<sup>24</sup>. DLT lingvistik atamalarini tadqiq etgan olim S.Rustamiy *kāsh, sāsh* qilib o‘qigan hamda mazkur atama o‘rniga qarab o‘rta tor ko‘tarilishdagi old qator unililari *ö* va *ä* ga nisbatan ishlatilishini xulosa qilgan<sup>25</sup>. E.Umarovning mulohazasiga ko‘ra, bu atama orqali Mahmud Koshg‘ariy cho‘ziq unililarni ifodalagan. Bunda *i* unlisiga nisbatan kengroq talaffuz qilinadigan *e* unlisiga ishora qilinganini ta’kidlagan<sup>26</sup>. Yuqoridagilar asosida, Q.Sodiqov atamaning qo‘llanilishiga to‘g‘ri yondashganini ko‘rish mumkin. Xususan, domla o‘zbek tilidagi va boshqa nashrlar o‘tgan bu yanglishlikni ham tahrir qilib qayta nashrga o‘zgartirish kiritgan (QS.356). Ushbu nashr o‘zbek koshg‘ariyshunoligida dadil qadam bo‘lib, turkiy matnning har satri qo‘lyozma asosida qayta tahrir qilingan hamda burungi nashrlarda o‘tgan ko‘plab yanglishliklarga barham bergan.

<sup>24</sup> Mahmudov Q. XIII–XIV asr yozma obidalar tilining fonetik sistemasi. – T.2004. – B.9

<sup>25</sup> O‘sha manba. B. 90.

<sup>26</sup> Umarov E. “Devonu lug‘otit turk”da cho‘ziq unililarning berilishi //O‘zbek tili va adabiyoti. 2010 №5. – B.74–75